



## PROCESS OF IMPROVEMENT OF THE SYSTEM OF LOCAL GOVERNMENT BODIES

<sup>1</sup> Mardiyev Kobilbek

<sup>1</sup> Master of History of Uzbekistan, Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4744752>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021  
Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

Authorities, citizens'  
appeals, deputies,  
population

### ABSTRACT

*The role and place of the mahalla in our country, which is building the foundations of civil society. Establishment and activity of the mahalla institute. About local government bodies in Samarkand region.*

## VILOYAT MAHALLIY BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINING TAKOMILLASHUVI JARAYONI

<sup>1</sup> Mardiyev Qobilbek

<sup>1</sup> Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021  
Ma'qullandi: 25-aprel 2021  
Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

Hokimiyat, fuqorolar  
murojaatlari, deputat,  
aholi.

### ANNOTATSIYA

*Fuqorolik jamiyati asoslarini yaratayotgan davlatimizda mahallaning o'rni va roli. Mahalla institutini tashkil etilish va uning faoliyati. Samarqand viloyatida mahalliy boshqaruv organlari haqida.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va davlat qurilishi sohalarida amalga oshirilgan islohotlar qatorida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini isloh qilish alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini qabul qilish munosabati bilan yanada faollashdi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish bo'lsa, ikkinchi vazifa respublikada davlat hokimiyatini vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tizimini yaratish edi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Respublikada milliy davlatchilik an'analari tiklashni ko'zda tutib, hokimlik instituti kiritildi. Hokimlar qonunga muvofiq ham vakillik organlariga, ham ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladilar. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati vakillik organlarining quyidagilari bosqichlarini ovul, qishloq, shaharcha, tumanga bo'ysunuvchi shahar va shaharlardagi xalq deputatlari sovetlari tugatilib, ularning o'rniga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari joriy etildi. Fuqarolik jamiyati qurishning ma'nosi davlatchilik rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq hamma millat vakillari shu organlarga saylanibgina qolmasdan, ular tizimidagi organlarda ham keng faoliyat ko'rsata boshladilar. Deputatning o'z saylov okruglaridagi faoliyatini amalga oshirishdagi muhim kafolatlaridan biri, deputatning qonun buzilgan hollarni bartaraf etishni talab qilish huquqidir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi qonunida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra davlat hokimiyatining vakili sifatida deputat

fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari buzilganligi yoki qonunchilik o'zgacha tarzda buzilgan hollarga duch kelganda o'sha joyning o'zida bunday buzilishlarning to'xtatilishini talab qilishga, zarur hollarda esa shunday buzilishlarga chek qo'yilishini talab qilib, tegishli organlar va mansabdor shaxslarga murojaat etishga xaqlidir. Xalq deputatlari o'z saylovchilari bilan doimiy aloqada bo'lishlari, ularni Kengash ishi haqida, xo'jalik va ijtimoiy qurilish rejalari bajarilishi haqida xabar qilib turishlari kerak. Deputatlar qonunlarni Kengash va uning organlari qarorlarini ijro qilinishida nazorat qilishlari, jamoatchilik fikrini o'rganishlari, Kengash va uning organlariga aholining talab va ehtiyojlarini yetkazishlari va ularni qondirishga tadbirlar ko'rishlari, tegishli organlarni ko'rib chiqish uchun, deputatlik faoliyatidan kelib chiqadigan takliflarni kiritishlari lozim.

2019-yilda adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Hujjat 8 bob va 47 moddadan iborat (amaldagisi — 6 bob va 29 moddadan). Yangi boblarda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ularning vakolatlari, shuningdek, ular faoliyatining qonuniyligi kafolatlari keltirib o'tilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy xususiyatga ega qarorlari loyihalari Qoraqalpog'iston Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri adliya boshqarmalari tomonidan majburiy tartibda tegishli huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Hokim vakolatini kengaytirish va unga tabiiy resurslardan foydalanish, kommunal tarmoqlar va inshootlar qurishga ruxsat berish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.2012



yaratish va boshqalarni kiritish taklif etilmoqda. Hujjatga ko'ra, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimlari bir yilda eng kamida ikki marta aholi oldida o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi. Hokimlar faoliyati Vazirlar Mahkamasi, xalq deputatlari kengashlari va yuqorida turuvchi hokimlar tomonidan har chorakda o'rganiladi. O'z faoliyati davrida tegishli hududni yetarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantira olmagan, tadbirkorlikni rivojlantirishning uddasidan chiqmagan shaxslar takroran hokim lavozimiga da'vogarlik qila olmaydi. Oshkoralik davlat hokimiyati vakillik organlarini yana rivojlantirishda muhim yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ham, mahalliy vakillik organlari bo'lgan viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari ham, o'zini-o'zi boshqarish organlari ham saylovlar asosida tashkil etiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari 2 ga bo'linadi: mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlari. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini kollegialik asosida olib boradi. Mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliy huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Mahalliy vakillik organlarining hamma bo'g'inlari saylov yo'li bilan tashkil qilinadi. Qonun vakillik organlariga har tomonlama bilimga, tajribaga ega, keng, mustaqil fikrlovchi shaxslarning saylanishini va bu organlar ishchan bo'lishini nazarda tutadi. 1994 yil 25 dekabrda va 1999 yil 5 dekabrda O'zbekistondagi mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar o'tkazildi. Mahalliy ijroiya organlari — hokimiyatlarga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi va u yakkaboshchilik prinsipi asosida ish olib boradi. Hokimiyatlar boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi, tashkil etilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar

bilan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent shahri ijroiya hokimiyati organlarining tuzilishi va shtatlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, tegishli xalq deputatlari kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi. Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya hokimiyati organlari tuzilishi va shtatlari tarkibi Mahalliy davlat hokimiyati organlari h. o. to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Xalq deputatlari kengashlari va hokim munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarga asosan hududdagi muhim masalalar, muammolarni hal qilishda maslahatlashish uchun hokimlar huzurida maslahat kengashi tuzildi. Lekin bunday maslahat kengashlari tuzilishi hokimning faoliyatidagi yakkaboshchilik prinsipiga putur yetkazmaydi. Ijroiya hokimiyati bo'linmalari rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda va hokimning taqdimiga binoan, tegishli xalq deputatlari kengashlari sessiyalarida lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Mahalliy vakillik organlari va hokimlar qabul qiladigan hujjatlar konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi lozim. Hokim tomonidan qabul qilingan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokim faoliyati, qarorlar qabul qilishdan tortib, ularni ijrosini ta'minlashgacha, ommaning ko'z o'ngida amalga oshiriladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonunlar ularning o'z ishlari va qabul qilgan qarorlari haqida aholini muntazam xabardor qilib turishlarini mustahkamlagan. Ma'lumki, vakillik organlari faoliyatining asosiy shakli ularning sessiyalaridir. Amalda bo'lgan qonunchilik deputatlar Kengash qarorlarini aholiga tushuntirib borishini, saylovchilar



oldida mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari oldida muntazam o'z ishi va Kengash faoliyati to'g'risida axborotlar berib turishini o'rnatadi. Bu ham oshkoralikning muhim ko'rinishlaridan biri. Oshkoralikning yana bir yo'li deputatlarning hisobotlaridir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risidagi qonunda deputatlarning aholi oldida muntazam hisobot berib borishlari belgilab qo'yilgan. Mahalliy vakillik organlari, ijroiya hokimiyati va deputatlar faoliyatining samaradorligini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, shu organlarning o'zaro hamkorligining yaxshi yo'lga qo'yilganligidir. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va uni iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlatga aylantirish jarayonida davlatni boshqarishda huquqiy tartibga solish yangi ma'no kasb etadi va bu uslub keng qo'llanildi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ham huquqiy tartibga solish uslubini keng qo'llaydilar. Huquqiy tartibga solish xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarni davlat, xo'jalik, ijtimoiy madaniy qurilish sohalariga rahbarlik qilishlarida va o'z ichki tashkiliy tuzilishlarini tartibga solishlarida keng qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat hokimiyatining vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlarni qabul qiladilar: xalq deputatlari Kengashining, hokimlik apparatining, "Ish tartibi" (Reglamenti). Xalq deputatlari yordamchi va ijro etuvchi organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarga: deputatlik guruhlar to'g'risidagi Nizomlar, hokimiyat apparatini bo'lim boshqarmalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizomlar kiradi. Hokimlik apparatini tuzulmaviy qismlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarga: mansab

yo'riqnomalari, bo'lim va boshqarmalarning komissiyalari to'g'risidagi, qabulxonalar to'g'risidagi Nizomlar, apparatdagi mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi normativ hujjatlarga - yo'riqnomalar kiradi.<sup>2</sup> Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining ayrim yo'nalishlari bo'yicha qabul qilinadigan hujjatlarga apparatda ish yuritish bo'yicha yo'riqnomani ko'rsatish mumkin va nihoyat davlat hokimiyatining vakillik organi va hokimlik apparatida jamoatchilikning tashabbuskor organlarini, fuqarolarni ishtirok ettirishda xizmat qiladi. Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradi. Yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari quyi turuvchi xalq deputatlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirar ekanlar, ular faoliyatini ham nazorat qiladilar. Shu bilan birga davlat boshqaruvi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvi o'rtasidagi ma'lum o'xshashlikni ko'rish mumkin, ba'zi holatlarda ularni «ajratish» boshqaruvda samara bermaydi. Bu yeng avvalo, ijtimoiy sohada kuzatiladi. Binobarin, bu davlatning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari uchun o'ta muhim. Masalan, fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv "manzilli" ekanligi, aholiga, ijtimoiy himoyaga muhtoj obektlarga eng yaqin turadi. Davlat bir qator holatlarda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari ishtirokisiz o'z vazifalarini samarali hal qila olmagan bo'lar yedi. Masalan, saylovlarda aynan fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari saylov kompaniyasi vaqtida saylovchilar hisobini yuritadilar, saylov komissiyasini bino bilan ta'minlaydilar, ovoz berish uchun tegishli joy hozirlaydilar va h.k. Endilikda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish

<sup>2</sup> Mahalliy davlat hokimiyati to'g'ridagi O'zbekiston Respublikasining qonuni.



organlari davlat tomonidan bir necha vazifalar ijrosini ta'min etib kelmoqda. Bu vazifalar orasida ijtimoiy himoya bilan bog'liq chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi. Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularga moddiy yordam ko'rsatish, bolali

onalarga nafaqa tayinlash, mahalliy homiylar ishtirokida muhtojlarga yordam berish kabi tadbirlar shular jumlasiga kiradi. Davlat byudjeti hisobidan to'lanadigan mablag'ni maqsadli yo'naltirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari zimmasidadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A. Karimov. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". T.O'zbekiston.1996.
2. Sh.M. Mirziyoyev Murojaatnoma. 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.2012.
4. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'ridagi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1993-yil 2-sentabr. (2019).
5. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida 1996.
6. [www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org)
7. [ziyouz.net](http://ziyouz.net).